

QUYONLAR PASTERELLYOZINING EPIZOOTOLOGIK TAXLILI

A.F.Saydullayev

I.X. Salimov

K.I. Mahmudova

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute

Annotatsiya: Maqolada quyonlar pasterellyozi bo'yicha epizootologik vaziyatini aniqlash maqsadida Andijon viloyatida tumanlararo epizootologik holat tahlil qilish bo'yicha o'kazilgan tadqiqotimiz bayon etilgan. Klinik jihatdan nosog'lom deb topilgan quyonlarga aniq tashxis qo'yish maqsadida laboratoriyada bakteriologik va mikroskopik tekshirishlar ishlari olib borilib, olingan natijalar bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Pasteurella multocida, pasterellyoz, endogen pasterellyoz bakteriologik usullar, virulentlik, kokkobakteriya, infeksiyon va invazion kasalliklar, pitomnik, vivariya, GPA, GPB.*

ЭПИЗОТОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПАСТЕРЕЛЛЕЗА КРОЛИКОВ

А.Ф. Сайдуллаев

И.Х. Салимов

К.И. Махмудова

Самаркандский государственный университет ветеринарии, животноводства и биотехнологии, Научно-исследовательский ветеринарный институт, Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологии

Аннотатсия: С целью определения эпизоотологической ситуации по пастереллезу кроликов в Андижанской области в статье описано наше исследование по анализу межрайонной эпизоотологической ситуации. Для точной диагностики клинически нездоровых кроликов в лаборатории были проведены бактериологическое и микроскопическое исследования, и на основании полученных результатов были даны заключения.

Ключевые слова: *Pasteurella multocida, пастереллез, эндогенный пастереллез, бактериологические методы, вирулентность, коккобактерии, инфекционные и инвазионные заболевания, питомник, виварий, ГПА, ГПБ.*

Kirish. Yurtimizda quyonchilikni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu e'tibor bir qancha qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini

rivojlantirish bo'yicha 2022—2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-120-sonli qarorida quyunchilik tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan alohida ustuvor yo'nalish belgilab qo'yildi. Ushbu ustuvor yo'nalish doirasida: sifatli quyon go'shtining mamlakatda iste'mol qilish darajasini ko'tarish hamda respublikada umumiy go'sht mahsulotlari hajmida uning ulushini oshirish nazarda tutilmoqda; Quyon go'shtini sanoat usulida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish hisobiga quyon go'shti iste'moli oshirib boriladi; Quyunchilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun ishlab chiqaruvchilardan go'sht mahsuloti va quyon terisini sotib oluvchi hamda qayta ishlovchi tashkilotlar tarmog'ini yanada kengaytirish borasidagi ishlar belgilab olindi.

Mavzuning dolzarbligi. Quyonlar kasalliklarning juda katta ro'yxatiga ega va ularning ko'plari juda xavflidir, shuning uchun quyon boquvchisi ularni davolash va oldini olish haqida hamma narsani bilishi kerak. Muayyan kasallikning umumiy belgilari va xususiyatlarini bilish sog'lom quyonlarni maksimal darajada kasalliklardan himoya qilishi va saqlab qolishi, shuningdek, infeksiyaning rivojlanishiga yo'l qo'ymasligi mumkin, chunki xavfli kasalliklar bilan kasallanish sizning uy hayvonlaringiz uchun qanchalik qulay sharoitlar yaratgan bo'lishingizdan qat'i nazar, kutilmaganda sodir bo'lishi mumkin[2].

Quyonlarning eng muhim muammolaridan biri pasterellyoz bo'lib, bu *Pasteurella multocida* (*P. multocida*) keltirib chiqaradigan keng tarqalgan, bakterial kasallik hisoblanadi va uy quyonlarining doimiy, jiddiy va o'ta yuqumli kasalligi sifatida qayd etilgan [1].

Pasterellyoz quyonlarning virusli gemorragik kasalligi, miksomatoz va koksidiozlar bilan bir qatordagi xavfli yuqumli kasalligi bo'lib, quyunchilik xo'jaliklariga, shuningdek, ilmiy tadqiqot uchun hayvonlarni ko'paytirish va boqayotgan pitomnik va vivariyalarga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Kasallik bakteriotashuvchining keng tarqalishi bilan tavsiflanadi, shuning uchun infeksiya qo'zg'atuvchisi tashqaridan (endogen pasterellyoz) kirmagan holda ham, fermada paydo bo'lishi mumkin[3].

Pasteurella multocida, yuqori virulentli va oson yuqadigan kokkobakteriyalar bo'lib, quyonlarning eng muhim bakterial kasalliklaridan biri. Kasallik butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarish korxonalarida katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi[4].

Material va metodlar. Tadqiqotimiz davomida hududlarda quyonlar pasterellyozi bo'yicha epizootologik vaziyatini aniqlash maqsadida Andijon viloyatida tumanlararo epizootologik holat tahlil qilindi. Tanlab olingan viloyatning kamida 5 ta tumani miqyosida quyonlar orasida infeksiyon va invazion kasalliklar kuzatildi. Ushbu tumanlardagi quyunchilik xo'jaliklarida klinik tekshirishlar olib borilib yuqumli kasalliklarga ayniqsa, pasterellyozga chalingan deb tahmin qilingan quyonlar ajratib olindi. Klinik jihatdan nosog'lom deb topilgan quyonlarga aniq tashxis qo'yish maqsadida laboratoriyada bakteriologik va mikroskopik tekshirishlar uchun qon, burundan olingan yuvma, o'lgan va majburiy so'yilgan quyonlarning butun tanasi va

yoki ichki organlaridan belgilangan tartibda namunalar olindi. Olingan namunalar xo‘jaliklarga yaqin viloyat, shaxar yoki tuman veterinariya laboratoriyalarida tekshirildi. Mikroskopik tekshirish jarayonida 2 tadan bosma surtma tayyorlandi va mikroskop ostida ko‘rildi va tegishli baho berildi. Bakteriologik tekshirish jarayonida patologik materiallardan infeksiyon kasallik qo‘zg‘atuvchilarini ajratib olish maqsadida sun‘iy ozuqa muhitlariga jumladan; go‘sht peptonli bulon, go‘sht-peptonli agar, qonli go‘sht peptonli agar yoki zardobli go‘sht peptonli bulonlarga ekmlar ekildi.

Barcha laborator tekshirishlardan olingan ma‘lumotlarlar kompleks tarzda tahlil qilinib, natijalar bo‘yicha xulosalar berildi.

Adabiyot ma‘lumotlariga ko‘ra, quyovlar pasterellyozini qo‘zg‘atuvchisi “Pasteurella multocida” bo‘lib, hayvonlar uchun eng katta etiologik ahamiyatga ega ekanligi sababli, biz asosiy e‘tiborni aynan Pasteurella multocidani o‘rganishga qaratdik.

Tadqiqot natijalari: Andijon viloyatida tumanlararo epizootologik holat tahlil qilinganda tasodifiy tanlangan 5 ta tuman miqyosida quyovlar orasidagi infeksiyon va invazion kasalliklar kuzatildi. Ushbu tumanlardagi quyovchilik xo‘jaliklarida klinik tekshirishlar olib borilib yuqumli kasalliklarga ayniqsa, pasterellyozga chalingan deb tahmin qilingan quyovlar ajratib olindi. Klinik jihatdan nosog‘lom deb topilgan quyovlarga aniq tashxis qo‘yish maqsadida Andijon, Asaka, Buloqboshi, Xo‘jaobod, Paxtaobod tumalar hududida joylashgan quyovchilik fermer xo‘jalikdagi jami 400 bosh quyovlardan 150 tasidan bakteriologik tekshirishlar olib borish uchun namunalar olindi. Namunalar “Andijon viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi”ning “Bakteriologiya bo‘limi” laboratoriyasida an‘anaviy bakteriologik usullar yordamida tekshirildi. Tekshirishlar natijasida 121 bosh quyovda yuqumli kasalliklar aniqlandi. Andijon viloyatida tumanlararo epizootologik holati tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Andijon viloyatida tumanlararo epizootologik holat tahlili

№	Tuman nomi	Pasterellyoz		Boshqa yuqumli kasalliklar		Sog‘lom	
		121 bosh = 80.7%				29 bosh = 19.3%	
		101 bosh = 83.4%		20 bosh = 16.5			
		bosh son	% da	bosh son	% da	bosh son	% da
1	Andijon	23	19	4	3.3	3	10.4
2	Asaka	18	14.9	5	4.2	7	24.3
3	Buloqboshi	20	16.5	4	3.3	6	20.7
4	Xo‘jaobod	18	14.9	3	2.5	9	31
5	Paxtaobod	22	18.2	4	3.3	4	13.8

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki Andijon viloyatida o‘tkazilgan epizootologik tadqiqotlarimiz natijasida, tekshirilgan 150 bosh quyovlardan 29 bosh quyov sog‘lom

deb topildi. 121 bosh quyonglar yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bo'lib, shundan 101 bosh quyong pasterellyoz kasalligi bilan, 20 bosh quyong boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallangani aniqlandi. Natijalarni tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak Andijon tumanida 19%, Asaka tumanida 14.9 %, Buloqboshi tumanida 16.5 %, Xo'jaobod tumanida 14.9 % va Paxtaobod tumanida 18.2 % quyonglar pasterellez bilan kasallanganligi aniqlandi. Boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallanish mos ravishda 3.3 %, 4.2 %, 3.3 %, 2.5 %, va 3.3 % ni tashkil qilganligi kuzatildi. Bundan ko'rinib turibdiki eng ko'p kasallanish pasterellyoz kasalligi bilan bog'liq bo'lib, quyongchilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazayotgani tasdiqlandi.

Xulosa. Quyonglar pasterellyozi bo'yicha epizootologik holatini tahlil qilish davomida, Andijon viloyati hududidan jami 150 bosh quyongdan namunalar olinib tekshirildi. Tekshirishlar natijasiga ko'ra 121 bosh = 80.7% quyonglar yuqumli kasalliklarga chalingan bo'lib, shundan 101 bosh = 83.4 foyizi pasterellyoz kasalligiga to'g'ri keldi. Bundan ko'rinib turibdiki hududda quyonglar pasterellyozi kasalligini oldini olish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini rejali tarzda amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nassar S.A., Mohamed A.H., Soufy H, Nasr S.M.//Protective effect of Egyptian propolis against rabbit pasteurellosis.//Res. Art. BioMed. Res. Int. 2013. <https://doi.org/10.1155/2013/16372>].
2. Soriano-Vargas E., Vega-Sanchez V., Zamora-Espinosa J.L. //Identification of Pasteurella multocida capsular types isolated from rabbits and other domestic animals in Mexico with respiratory diseases. //Trop Anim Health Prod 2012, 44(5):935–937p.
3. Заерко В.И. //Разработка и внедрение универсальной технологии изготовления, контроля и применения вакцин против пастереллеза животных: дис. в форме науч. докл д-ра вет.наук. / М., 2000. С. 35].
4. Основные болезни кроликов [Электронный ресурс] // ОГБУ Иркутскага районная СББЖ. – Режим доступа: http://irkraibbg.ru/Основне_Болезни_Кроликов – Дата доступа : 24.07.2020
5. Юращик С.В. Кролиководство: учеб. пособие / С.В. Юращик. – Гродно: УО «ГГАУ», 2005. – 394-397с.